



**QASHQADARYO VILOYATINING
SANOAT ISHLAB CHIQARISHI
2024- YIL YANVAR-AVGUST
(DASTLABKI MA'LUMOT)**




Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 17 562,5 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 79,1 % ni tashkil etdi.




2024- yilning yanvar-avgust oylarida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishdagi yuqori ulush Nishon tumani (29,8 %), Qarshi shahri (13,0 %), G'uzor tumani (12,9 %) Qarshi tumani (7,7 %) hamda Kasbi tumani (5,1 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Muborak tumanida (109,8 %), Ko'kdala tumanida (108,2 %) hamda (108,0 %) Shahrisabz tumanida kuzatildi.



yanvar-avgust oylarida yirik korxonalar bo'yicha
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da*)



Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-avgust	2024-yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Shag'al, ming t.	38,5	15,5	- 23,0
Neft, ming t.	7,9	7,6	- 0,3
Tabiiy gaz, mln. kub.m	56,5	42,3	- 14,2
Gaz kondensati, ming t.	72,6	77,3	4,7

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Dizel yoqilg'isi	Portland cement	Kaliy xlorid
2024-y. 100,0	2024-y. 102,5	2024-y. 107,9
2023-y. 8,7 m.	2023-y. 5,5 m.	2023-y. 106,1
2022-y. 171,1	2022-y. 114,0	2022-y. 98,0
O'simlik yog'i (tozalangan)	Polietilen	Yumshoq bug'doy va spelta uni
2024-y. 15,0	2024-y. 105,9	2024-y. 79,6
2023-y. 20,1	2023-y. 107,1	2023-y. 23,2
2022-y. 162,7	2022-y. 92,0	2022-y. 93,1

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,9 % ni (2023- yilning yanvar-avgust oylarida – 0,4 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 18,0 % (15,6 %), o'rta-quyi texnologiyali – 29,4 % (25,8 %), quyi texnologiyali 51,7 % (37,4 %)ni tashkil etgan.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtovositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 0,6 % (2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 150,5 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,1 % (2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 125,4 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 30,7 % (2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 119,0 %) ga to'g'ri keldi.

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 19,6 % (2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 125,2 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 1,3 % (2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,1 %) ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish

2024- yilning yanvar-avgust oylarida viloyatda 268,7 ming tonna dizel yoqilg'isi (2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 100,0), 44,5 ming tonna kalava ip (111,2 %), 1 254,5 ming litr aroq mahsulotlari (93,7 %) hamda 16,8 ming tonna yumshoq bug'doy va sepelta uni (79,6 %) ishlab chiqarilgan.


Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-avgust	2024-yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Paxta linti, ming t.	2,2	2,5	0,3
Aroq, ming litr.	1 339,5	1 254,5	- 85,0
Kalava ip, ming t.	39,7	44,5	4,8
Yumshoq bug'doy va sepelta uni, ming t.	21,1	16,8	- 4,3
Paxta tolasi, ming t.	41,7	50,3	8,6

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Metallurgiya sanoati

Metallurgiya sanoati – cho'yan ishlab chiqarish va qora va rangli metallarni qayta ishlash, jumladan, quyma cho'yan va toza metallarga kimyoiy elementlar qo'shgan holda superqotishmalar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,1 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 125,4 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 14,1 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ishlab chiqarish turlarini o'z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o'rnatiladigan qoplamlar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xom-ashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,1 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 117,3 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 1 140,9 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yeyiladigan qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o‘z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 14,9 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 25,3 % ga o‘sdi va ishlab chiqarish hajmi 3 298,1 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ichimliklar ishlab chiqarish – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali; pivo va vino, shuningdek, distirlangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,7 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 124,0 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 146,5 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qmachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-avgust oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 20,9 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 17,9 % ga ko'payib, ishlab chiqarish



Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-avgust oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,1 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 126,8 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 696,7 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 14,2 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 106,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 3 146,1 mlrd. so'mni tashkil etgan.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish – rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o'z ichiga oladi. Lekin bu bo'limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.

2024- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,5 % ni, fizik hajm indeksi 148,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 112,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 93,1 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 111,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-avgust	2024- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Elektrenergiya, mln.kVt.s	5424,7	5 051,7	- 373,0
Issiqlik energiyasi, ming gal	2095,3	2 337,0	241,7

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)




* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish, suv quvurlari va taqsimlash bo'yicha xizmatlarda 126,9 % hamda oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 136,0 % ga teng ekanligi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-avgust	2024-yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	71 942,5	97 810,0	25 867,5
Suvga ishlov berish, suv quvurlari va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	6 529,0	8 283,6	1 754,6

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra